

## MUROD I HAYOTI

### **Nabiyeva Farmuda Rustam qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Tarix fakulteti 3- kurs talabasi*

**Anastasiya:** *ushbu maqola Usmoniylar imperiyasi asoschisi bōlgan sulola Usmoniylar sulolasining Uchunchi hukmdori hisoblangan Murod I haqida hisoblanadi. Usmoniylar haqidagi ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar** I: *Murod G'oziy Usmoniylar Sultonxonim Bursa Sulaymon Podsho.*

Murod I,(1362- 1389) Murod-i Hudavendigar yoki G'oziy Hunkar nomlarini olgan tarixiy shaxs usmoniylar hukmdori Murod G'oziy 1326-yili Bursa shahriga to'g'ilgan. Usmonlilar imperiyasining uchinchi sultoni. Uning otasi O'rxon G'oziy, onasi esa Nilfar Xotundir(sultonxonim). Otasi O'rxon G'oziy davrida 95.000 km<sup>2</sup> bo'lgan davlat hududi uning hukmronligi davrida taxminan 500.000 km<sup>2</sup> gacha kengaydi.


1362 yilning mart oyida 35-36 yoshlarida Usmonli sultoni sifatida taxtga o'tirgan. Anqarani qayta egallash bilan yurishlarini boshlagan Sultonmurod 1362 yil iyul oyida Edirni egallab, uni yangi poytaxt qildi. Buning ortidan Bolqonning muhim markazi Plovdiv zabt etildi (1363-yil).

Unga Hudavendigar unvoni berilgan(, ya'ni "hukmdor", "xo'jay" degan ma'noni bildiradi). Dastlab Sulton Murod O'rxon I sifatlari bilan qaralgan . Ba'zi yozuvlarda Melikul Odil G'azi es-Sulton Giyosid- Dunya ved-Din Murod bin O'rxan el-Melik, el-Odil, es Sultonul G'olibning ismlari va unvonlari uning nomiga zarb qilingan kumush va mis tangalarda va boshqa ba'zi yozuvlarda ishlatilgan. Birinchi marta Sulton Murod davrida qo'llanilgan. G'arb manbalarida Amourod I deb yuritiladi. U shahzodaligi davrida Edirni zabt etadi. Va yurushini Bolqonda davom ettiradi

Murod I yoshligidan ilimni yaxshi eggallaydi Jang sa'nati buyicha xam anchagina yutuqlarga erishadi. Ma'lumotlarga qaraganda Murodning Onasi yunonlarda tug'ilgan Yarhisar tekfurining qizi bo'lgan.

Otasi O'rxon davrida 1324 yili Bursa qushib olingan Va sanjakga aylantirilgan. Aynan sanjak beyi sifatida Murod I tayinlangan. Yana boshqa manbalarda Bursa ishg'olidan so'ng Bu yir Davlat markaziga (poytaxt) aylantirilgan. Yuqorida aytib utgan edik Murod I ga Hudavendigar unvoni berilgan bu unvon asosan Bursa





sanjagida ishlatiladi keyinchalik . Murodga ham berilganligini inobatga olsak, u Bursa Sanjak beyi sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga kura Murod I Ning ini sulaymon posho Rumili istilolarida(1359-yil) qatnashgan Va u yirda sirli vafot etgandan so'ng beklikga kelgani haqda aytilgan. Va hatoki Sulaymon poshoda keyin yurishni Murod I davom etirgan (1359-1362). Demak hukmronlik Sulaymon poshoda o'tib Murodga kelgan. Lekin yana bir qarash mavjud ya'ni Sulaymon posho o'lgandan keyin g'am g'ussaga borib qolgan VA ancha yoshi o'tib qolgan O'rxon I hukumat ishlaridan uzoqlashgan hokimiyatni esa o'g'li Murodga topshirgan. O'zi esa umrining so'ngi kunlarini yolg'izlikda o'tkazgan. Ba'zi tarixchilar O'rxon I 1362 yilda Rumelida jangovar muhitda bo'lganida vafot etgan deyishadi. Murod Bursa belari qarori bilan hukmdor deb e'lon qilinadi va Bursaga chaqiriladi.

1359-yilda Papalik va Vizantiya salibchilar flotining Lapseki va Saros ko'rfaziga qo'nishiga to'sqinlik qilgan shahzoda Murodning Lala Shahin kabi iste'dodli qo'mondonlari bilan bir qatorda Evrenos va Hoji bey kabi qo'mondonlari ham bor edi. Biroq kichik ukasi Halil Yunon qaroqchilari tomonidan asirga tushib, Fochaga olib ketiladi va otasi O'rxon o'g'lini qutqarish uchun imperator Yuannis Paleolog bilan shartnoma tuzgach, Rumelidagi harbiy faoliyatini bir muddat to'xtatishga majbur bo'ladi. Xalil qutqarilib, olib kelingach(Shevval-Zilkade / 1359 yil sentyabr-oktyabr) u fath yurishlarni davom ettirdi. U o'z faoliyatini 1360-1361 yillarda ma'lum reja asosida olib borgan. Birinchidan, Edirnegga kelishi mumkin bo'lgan harbiy yordamni to'xtatish uchun bosqinchilarni Istanbul oldiga yubordi. Istanbul-Edirne yo'lidagi asosiy qal'alar Bantoz (Panados), Chorlu Misini , Luleburgaz (Verguli) va Babaeski (Bulgarufigon) qo'lga kiritiladi. Boshqa tomondan, Janubiy Trakyaning Merich daryosi tomon yo'l kesishmasidagi Keshan qalasi va Edirne janubidagi Trakyaning ikkinchi yirik markazi bo'lgan Dimetoka (Didymoteikhon) qal'asi qo'lga olindi (1360 yoki 1361). Shunday qilib, Edirne har xil yordamdan yakkalanib qoldi.





Usmoniylar impiriyasi(1361-1389)

. Murod taxtga chiqqanidan keyin Karaman va Eretna tahdidi tufayli 1365-yilgacha Anadoluda qoldi. Eretnaog'lu Mehmed taxtga o'tirgan Karamano'g'li Alaviddin, Anqaraga hukmronlik qilgan Baxtiyor Bey bilan ittifoq bo'lib Usmonli yerlariga hujum qildi. Murod I 1362 yil qishini Bursada o'tkazgach, kuchli qo'shin to'plab, keyingi yilning bahorida yurishga jo'naydi. Yurishdan maqsad esa tahdiddan qutilish edi. U Eskishahar viloyatida Eretnaning mo'g'ul qo'shinlarini mag'lub etib, Karaman qo'shinini qaytardi. Shundan so'ng qamalda qolgan Anqara beylari qal'a kalitlarini olib kelib taslim bo'lishadi. Shunday qilib, Karaman va Eretna tahdidi yo'qoladi.

Turli manbalarda aytilishicha, u 40 dan ortiq urushlar olib borgan va hech qachon mag'lub bo'lmagan. U Birinchi Kosovo urushidan keyin jang maydonini aylanib yurgan serb askari Milosh Obilich tomonidan pichoqlab o'ldirilgan.

#### ADABIYOTLAR:

Ahmedi, Dâstan ve Tevarih-i Muluk-i Al-i Usmon (Haz. Çiftçioğlu N. Atsız, Usmonli tarixshunosligi I), Istanbul 1949, s. 14-20.


Esterabâdi, Bezm ü Rezm (nshr. Kilisli Muallim Rifat), Istanbul 1928, s. 318, 381-383, 387-388.

D. Cydonès, Correspondance, Vatikan 1975, I-II, spec.c.

Istanbul fathidan oldin yozilgan tarixiy kalendarlar (nshr. Usmon Turan), Ankara 1984, bet. 18, 19, 54, 55, 70.

Dukalar, Usmonli turklariga Vizantiyaning tanazzul va qulashi (tr. H. J. Magoulas), Detroit 1975, dir.ye.





N. Gregoras, Rhomäische Geschichte (tr. J. L. van Dieten), Shtuttgart 1973-88,  
I-III, rej.

